

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDA BERILGAN IJODKORLARNING
TAXALLUSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN DARSLAR ORQALI O'RGATISH

Odilova Sevara To'lqinovna

Farg'ona viloyati Qo'qon

shahar QDPI ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti

odilovasevara1990@gmail.com

+99891-202-08-70

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ijodkorlarning taxalluslarini o'rgatish usullari haqida keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari, antroponim, shoir, yozuvchi, taxallus, "Gul"metodi, "Adashgan pufak".*

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslari o'quvchi savodxonligini oshirishi, uni ifodali va ravon nutqini shakllanishi, obrazli va tushunib o'qish ko'nikmalarini shakllanish uchun asos hisoblanadi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida berilgan matn, she'r, hikoya va ertaklar har bir sinf o'quvchilarining yoshi, fikrlashi, tushunishidan hisobga olib ular yoshiga mos va bo'lishi juda muhimdir. Shuni hisobga olib har bir sinf darsligida turli mazmundagi mavzular ketma-ket bir-birini to'ldirib, zamon bilan hamnafas davom etadi. Har bir sinf darsligidagi mavzular o'quv yili davomida tabiat, zamonaviy texnologiyalar, kasb-hunar, fasllar, har bir fasldagi bayramlarni qamrab olib, ularning mazmunini ochib beruvchi mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi topshiriqlar, mavzular orqali ona tili fanining maqsadi bo'lgan grammatik bilimlarni oshirish asosiy g'oya sifatida olingan. Bu orqali o'quvchilarni siyosiy, ijodiy, mantiqiy tafakkuri rivojlanib, bilimlari oshirib boriladi. Shu sababli kitobda o'quvchilar uchun turli mavzudagi bolalar shoir, yozuvchilari tomonidan berilgan she'r, ertak, hikoya va matnlar beriladi. Bularni o'rganish orqali har bir bola uchun dunyoqarashini shakllanishi uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan ijodkorlarning taxallusini o'rganish va o'rgatish zaruriyati kelib chiqadi. Bu orqali bolalarni adabiyotimizning namoyondalari hayoti va ijodi bilan tanishtirib, ularning ajdodlaridan faxrlanish tuyg'ularini shakllanishiga asos bo'ladi.

Adabiyotimizda taxallus termini hozirgi kunda keng ma'noda qo'llanilib kelmoqda. U yozuvchilar, shoirlar, artistlar, rassomlar, jurnalistlar, hamda jamoat arboblari ikkinchi nomi hisoblanadi.

O'zbek antroponimlarining nominativ birliklaridan birini taxalluslar tashkil qiladi. Taxalluslar ham shaxs ismi - asosiy nomga nisbatan xuddi laqab kabi qo'shimcha nomdir³⁴.

³⁴ Ўзбек тили антропонимикаси / Э.А.Бегматов. -Тошкент: Фан, 2013. -264 б.

Har bir onomastik birlik ma'lum nominatsiya ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Taxallus ham mana shunday ehtiyoj tufayli udum bo'lgan. Bu taxallus so'zining ma'nosida ifodalangan.

Rus tilida taxallus psevdonim deb ataladi. Psevdonim (laqab) termini grek tilidan o'zlashgan bo'lib, psevdos - yolg'on, uydirma + onoma - nom ma'nosini anglatadi. N.V.Podolskaya psevdonimni uydirma, o'ylab topilgan nom, soxta nom ma'nolarida tushuntirgan.

T.Qorayev va R.Vohidovlar taxallus so'zi bir qator tarixiy lug'atlar, o'zbek va tojik tilining izohli va ikki tilli lug'atlarida, she'riyat lug'ati, adabiyotshunoslik terminlari lug'atlarida deyarli bir xil izohlanishini aniqlashgan.

Taxallus - arabcha so'z bo'lib, xalos bo'lish va qutulish ma'nosini beradi.³⁵

Bu fikr shaxs o'zining asosiy ismi o'rniga boshqa nom qabul qilib, o'z asosiy nomidan xalos bo'lmoq ma'nosida bo'lsa kerak. Demak, ijodkor o'z nomini yashirish orqali boshqa nom ostida ijod qilishi, ma'lum bir sabab tufayli o'zini ijod qilayotganini, yashirib, ma'lum bir nom ostiga o'zligini yashirish orqali ijod qilish natijasida bu tushuncha fanga kirib kelgan.

T.Qorayev va R.Vohidovlar taxallus so'zi bir qator tarixiy lug'atlar, o'zbek va tojik tilining izohli va ikki tilli lug'atlarida, she'riyat lug'ati, adabiyotshunoslik terminlari lug'atlarida deyarli bir xil izohlanishini aniqlashgan.³⁶

Ijodkor taxallus tanlar ekan avvalo ma'lum ta'sir etgan xususiyatlarini asos qilib olish biz uchun muhim hisoblanadi.

1.O'zi yashayotgan joyiga nisbatan taxallus olish

2.Ota ismiga asosan taxallus olish

3.Sevgi muhabbat nomi ortida taxallus olish

4. Tabiatdagi ma'lum bir go'zal, jarangdor narsalar orqali taxallus olish

5. Familiyani qisqartirish orqali taxallus olish

6. O'zidagi biror belgi, xarakter, tanasidagi nuqson orqali taxallus tanlashga to'g'ri kelgan.

Tarixda sharq san'ati va adabiyoti namoyandalari, olimlarimiz o'zlariga turli narsalarga, sifat va xususiyatlarga ishora tarzida (Ulug'bek – Muhammad Tarag'ay, Navoiy, Lutfiy, Bobur, Mujrim Obid, Munis, Zavqiy), mashg'uloti, kasbiga nisbatan (Gulxaniy, Charxiy), tug'ilgan yoki yashagan joyiga nisbatan (Buxoriy, Qoshg'ariy, Marg'inoniy, Nasafiy, Taroziy, Xorazmiy, Xo'jandiy, Chustiy, Shoshiy, Yugnakiy, Yassaviy), yashash tarzi yoki qismatiga ishora sifatida (Gadoiy, G'aribiy, Uzlat, Muqimiy, Furqat) va boshqa omillarga qarab taxallus olganlar yoki tanlaganlar. Sharqda ham, g'arbda ham ko'pchilik ijodkorlar faqat taxallus bilan mashhur bo'lishgan. Masalan, Beruniy – Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad, Navoiy – G'iyosiddin o'g'li Alisher, Muqimiy – Muhammad Aminxo'ja o'g'li, Oybek – Muso

³⁵ Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асралари луғати. Тошкент, 1972. 601-бет

³⁶ Қораев Т., Воҳидов В. Тахаллуслар. Тошкент: Фаи, 1979. 6-7-бетлар.

Toshmuhammad o'g'li, Yashin – Komil Nu'monov, Chustiy – Nabixon Xo'jayev; Stendal – Anri Mari Beyl, Jorj Sand – Avrora Dyupen va boshqa ba'zi shoirlar birdan ortiq taxallus bilan (Navoiy – Foni; Mujrim – Obid; Nodir – Uzlat – Mahjur; Nodira – Maknuna – Komila kabi), ba'zan bir necha shoir bir taxallus bilan (“Navoiy” taxallusli 10 ga yaqin shoir bo'lgan) ijod qilganlar.



Boshlang'ich sinf darsliklarida ham bolalar ijodkorlarining taxalluslari keltirilgan. Ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida keltirilgan ijodkorlar taxalluslarini ko'rib chiqaylik.

Bolalar shoirlarimiz ko'pincha familyani qisqartirish orqali taxalluslarini yaratishgan. Bunda nomning qisqa va jarangdor, e'tiborni o'ziga tortishi asosiy maqsad hisoblangan.

Anvar Obidjon (asl ismi Anvar Obidjonov) (1947-yil 8-yanvar - 2020-yil 11-aprel) o'zbek jurnalisti va shoiridir. O'rta maktabda o'qib yurganida “G'uncha” jurnalida “Shkafjon” nomli birinchi she'ri bosilgan (1960). Obidjon 1946-1966-yillarda Samarqand moliya texnikumida, 1973-1979-yillarda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida sirtidan o'qigan. Anvar Obidjon “Ona-yer”(1975), “Olovjon va uning do'stlari” (1983), “Bezgakshamol” (1985), “Akang qarag'ay Gulmat” (1987), “Oltin yurakli Avtobola” (1986), “Alamazon va Gulmat xangomasi” (1992), “Meshpolvonning janglari” (1994), “Oltiariq xangomalari” (1999), “Odobli bo'lish osonmi?” (2001), “Meshpolvon” (2003) singari 25 ta to'plamini chop ettirdi. U aksariyat asarlarini bolalarga bag'ishlaydi.³⁷

O'quvchilarga ijodkor nomini tanishtirish uchun “Gul” interfaol o'yinidan foydalanish mumkin. Anvar Obidjon she'rlari 1-sinf darsligida keltirilgani uchun bu metoddan foydalanish ayniqsa juda ham qulay. Bu metod orqali o'quvchilarni tabiatga mehrini va matematika faniga qiziqishlari ham oshib boradi. Turli rangli gul bandlari orqali ularning ijodiy faoliyati darsga qiziqishi yanada oshadi.

“Gul” metodi bo'lib bunda gul bandlarida harflar yoziladi uni terish orqali o'quvchilar ijodkor kimligi haqida ma'lumot oladilar. Gul bandlarini raqamlar asosida terish orqali “Anvar Obidjon” nomi kelib chiqadi va ijodkor haqida ma'lumotlar beriladi.




³⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Anvar_Obidjon

2.Po‘lat Mo‘min (taxallusi; asl ism-sharifi Po‘lat Mo‘minov) (1922.24.12 -Toshkent – 2004.2.3)-bolalar shoiri. Uning adabiyotga mehri oshiq boradi, yozgan she‘rlari gazetalarda bosilib chiqa boshlaydi. Uning ilk she‘riy to‘plami – “Sayrang, qushlar” (1949), keyin uning “Tong kuylari” (1949), “Oltin boshodkor” (1951), “Tish cho‘tkasi ertagi” (1955), “Hunardan unar” (1958), “To‘g‘ri o‘sgan gul bo‘lur” (1960), “Aql qayerda bo‘lar” (1962), “Oltin nay” (1967), “Yaxshilarga o‘xshasam” (1975), “Rahmatga rahmat!” (1969), “Eson va Omon” (1973), “Ertakdan ertakka” (1989), “Ertaklar yaxshilikka yetaklar” (1984), “Yurak zavqu dardlarim, aytar baytu fardlarim” (1993), “Bug‘doy bobo” (1995), “Bolajon, bolajonim” (2003) va boshqa bolalarga bag‘ishlangan she‘r va ertaklardan iborat to‘plamlari, “Kul-di xiyol” (1964), “Gul va piyoz” (1971), “Qo‘shiq aytib” (1985) singari qo‘shiqlardan tashkil topgan kitoblari chop etiladi. “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlangan (1998).

Bolalar ijodkori Po‘lat Mo‘minni “Adashgan pufaklar” o‘yini orqali tanishtiramiz.

“Adashgan pufak” bu o‘yinda pufaklar yonidagi qutichadan shar va uning raqamlarni oladi. Raqam yozilgan qog‘ozning rangiga va undagi bo‘g‘inlar sonini aniqlab, pufakka harf bo‘g‘inlarni joylaydi.



Yig‘ilgan bo‘g‘inlardan hosil bo‘lgan so‘zlar orqali ijodkorlarning nomi aniqlanib, ijodkor hayoti haqida ma‘lumotlar tushuntiriladi. Bu metod ham o‘quvchiga estetik zavq berib, pufaklardagi bo‘g‘inlarni to‘g‘ri joylashtirish asosida sanash va farqlashni o‘rganadi.

Ijodkor tabiatdagi ma‘lum bir go‘zal , jarangdor narsalar orqali taxallus tanlashadi. Bunday ijodkorlar yangilik yaratuvchi, qiziquvchanlik fazilatlarini bilan ajrab turadi. Shunday ijodkorlardan biri Oybek.

Oybek (taxallusi; asl ism-sharifi Muso Toshmuhammad o‘g‘li; 1905.10.1 – Toshkent – 1968.1.7) – shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olim va jamoat arbobi. Oybekning bu taxallusni tanlashiga bolaligidagi yorqin xotiralar sabab bo‘lgan.

Oybek quyidagilarni yozadi: “ Uzoq yoshlikning taassurotlaridan biri hali-hali esimda. Yop-yorug’kecha, uyimizning yassi tomida onam bilan turardim: to’lishgan oppoq oy osmon bo’ylab suzardi, u menga juda go’zal ko’rinardi. Men unga qo’llarimni cho’zib intilardim va “oyi, oyi, oyni olib bering”, deb xarxasha qilardim”.³⁸ Oy yer tabiiy yo’ldoshining nomi bo’lib, qadimgi turkiy tilda ham, hozirda ham “Yerning yo’ldoshi”, “yilning o’n ikkidan bir qismi” ma’nolarini anglatgan. Oy so’zi turkiy Oy so’zi turkiy tilda A:y tarzida talaffuz qilingan.³⁸

Ijodkorning nomini rasmi rebus orqali keltirib chiqarishimiz maqsadga muvofiq. Bunda turli rasmlarni turliisoralar orqali birlashtirish yo’li bilan ijodkor nomini hosil qilinadi.

1.Rebus.Bunda rasmlar va harflar asosida mavzu va muallifini aniqlanadi.



Oybek taxallusi kelib chiqadi

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining diqqati tarqoq, qiziquvchan, o’yinqaroq bo’lganligi sababli darslarda turli o’yinlar, interkativ metodlardan foydalanish ularning darsga qiziqishini oshirish, bilimni mustahkamlash uchun zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang’ich sinf o’qish darslarida ijodkorlarning taxallusini o’rgatishda turli interaktiv metodlardan foydalanish katta samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ўзбск тили антропонимикаси / Э.А.Бегматов. -Тошкент: Фан, 2013. -264 б.
- 2.Шамсиев П., Иброҳимав С. Навоий асралари луғати.Тошкент, 1972. 601-бет
3. Қораев Т., Воҳидов В. Тахаллуслар.Тошкент: Фан, 1979.6-7-бетлар
- 4.https://uz.wikipedia.org/wiki/Anvar_Obidjon
5. Ona tili va o’qish savodxonligi 1-qism [Matn];darslik 1-sinf uchun / I.Azimova [va boshq.]-Toshkent ;Respublika ta’lim markazi, 2021-104b

³⁸ 1Oybek. El xizmatida. – Adabiyotimiz avtobiografiyasi. To’plovchi prof. Laziz Qayumov. – Toshkent, G`afur G`ulom, ,1973.– B.145.